

KREOL TIL

Tursunov Mirzohid Ikromjon o'g'li

O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy xodimi

Annotatsiya

Mazkur maqolada pijindan rivojlanishni boshlab, mustaqil til darajasiga qadar rivojlana olgan kreol til haqida nazariy ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, Afrika, Osiyo qit'alarida joylashgan davlatlarda hozirgi kunda kreol tillarining qanday shakllaridan foydalanilayotganligi, kreollashuv va kreolsizlashuv hodisalari haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kreol til, pijin, substrat lison, kreollashuv, bislama, tok-pisin.

Kreol til sotsiolingvistikaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Kreol terminining kelib chiqishi "Amerikada tug'ilgan afrikalik qul" ma'nosini beruvchi *portugalcha* "*crioulo*" so'ziga bog'lanadi¹. Hozirgi vaqtda dunyoda oltmishdan ortiq kreol tillari mavjud bo'lib, ular mavjud pijinlar sonidan bir necha baravar ko'pdir. Tilshunos A.Berdaliyevning "O'zbek sinxron sotsiolingvistikasi" darsligida 10 millionga yaqin kreol tilida so'zlashuvchi aholi mavjudligini qayd qilib o'tgan. Boshqa bir manbada esa 30 millionga yaqinligi haqida ma'lumotlar mavjud. Hozirgi vaqtda kreol tilida so'zlashuvchilarning umumiy soni doimiy ravishda o'sib bormoqda. Asosiylari ingliz, fransuz, ispan va portugal tilida so'zlashadigan pijinlardan tashkil topgan kreol tillaridir.²

Kreol til pijin tilga ma'lum darajada o'xshaydi. Masalan, bu ikki tilning asosiy vazifasi kundalik so'zlashuvda qo'llanishidir. Biroq kreol til va pijin tillari o'ziga xos muhim tomonlari bilan o'zaro farq qiladi. Masalan, pijin tilga asos bo'luvchi *substrat lison* ayrim savdogarlar va migratsion tabaqalarga mansub bo'lib, biror-bir etnik jamoaning ona tili hisoblanmaydi³. Kreol til esa unday emas. U shakllangan lug'at tarkibi (leksikasi) va mukammallashgan grammatik qurilishga ega bo'lgan to'laqonli tildir. Ma'lumki, tillar jamiyat bila birgalikda rivojlanib boradi. Kreol tili ham jamiyatning ichki omillari asosida rivojlanadigan mustaqil tildir.

Kreol tilning kommunikativ vazifasi pijin tildan boshlangan bo'lsa-da, lisoniy qurilishi jihatidan mustaqillikni qo'lga kiritgan me'yoriy tildir⁴. Kreol tildan farqli ravishda pijin hech qachon biror-bir etnik guruhning ona tilisi bo'la olmaydi, kreol

¹ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. – Москва.: РГГУ, 2001. – С. 91.

² См.: Теоретические проблемы социальной лингвистики. — М.: Наука, 1981. – С.301-302.

³ Бердалиев А. Ўзбек синхрон социоллингвистикаси. – Тошкент, 2019, 50-бет.

⁴ Бердалиев А. Кўрсатилган асар, 50-бет.

til esa muayyan bir etnik jamoaning ona tilisi sifatida shakllana oladi. U hatto xalqaro til maqomini ham olishi mumkin.

Bikerton farazicha, pijinda so‘zlashgan mustamlakachilar farzandlari kreol tilining yaratuvchilaridir. Ular mustamlaka sharoitida faqat pijin til amal qiladigan jamiyatda tug‘ilib o‘sgani sababli sun‘iy pijinni tabiiy kreol tilga aylantirganlar, ya‘ni ajdodlari uchun pijin hisoblangan tilni ona tili sifatida o‘zlashtirganlar.

Aksar kreol tillar Afrika, Amerika va Sharq mamlakatlari xalqlari tillariga Yevropa mustamlakachilari tillari xususiyatlarining singishidan hosil bo‘lgan, ammo negizi Yevropa tillariga mansub bo‘lmagan ma‘lum miqdordagi pijinlar ham mavjud. Misol uchun, Zairda kituba kreol tili (so‘zlashuvchilari soni 5 million) va Kongo Xalq Respublikasida munukutuba kreol tili (so‘zlashuvchilar soni 1,5 million) mavjud bo‘lib, bu kreol tillarining ikkasi ham Kongo tiliga asoslangan. Kreollashuv jarayonlari Afrikaning eng yirik suaxili tilining rivojlanish tarixida muhim rol o‘ynadi.⁵

Hozirgi vaqtda dunyoning ko‘p joylarida kreol tilga o‘tish harakati avj olgan. Xususan, Karib havzasi atrofi, Afrika, Hind kontinentlari, Malayziya arxipelagi va Sharqiy Hind orollari atrofi, Makka, Gongkok, Shanxay shaharlari etnik jamoalari kreol tilni o‘zlarining ona tili sifatida rasmiylashtirmoqdalar.

Kreol tillari katta sotsiolingvistik ahamiyatga ega, chunki ular ko‘pincha ma‘lum ijtimoiy guruhlar, millatlar yoki mintaqalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ular kichik xalqlarning madaniyati va ijtimoiy o‘ziga xosligini saqlash vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Biroq barcha afzalliklarga qaramay, pijinlar va kreol tillari ko‘pincha adabiy tilda so‘zlashuvchilar tomonidan kamsitish va nafratga duch kelishadi. Buning sababi shundaki, ular o‘tmishda qullar yoki mustamlaka qilingan xalqlarning yordamchi tillari sifatida ishlatilgan.

Pijinlarning kreollashuv jarayoni turli xil hududlarda va ijtimoiy sharoitlarda yuz berdi. Masalan, Yevropaning qirg‘oq istehkomlarida, plantatsiyalarda, shuningdek, turli hududlardan kelgan qochoq qullar orasida tuzilgan aralash oilalarda bu holat kuzatilgan.

Muayyan vaziyatda pijin til bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan jamiyatning yagona tiliga aylanishi mumkin va ma‘lum vaqtdan so‘ng ushbu jamiyatning barcha lisoniy ehtiyojlarini to‘la qondira boshlaydi. Natijada o‘z leksik manbasiga ega va grammatik qurilishli mustaqil tilga aylanishi kuzatiladi. Sotsiolingvistikada bu jarayon kreollashuv jarayoni deb ataladi. Masalan, ingliz pijin asosida Surinam Respublikasi uchdan bir qism aholisining ona tili hisoblangan sranan tilining shakllanishi kreollashuvga misol bo‘ladi.

Aksariyat yevropaliklar kreol va pijin tillarini ingliz, fransuz va boshqa tillarning buzilgan ko‘rinishi deb hisoblaydilar. Bunday qarash uzoq vaqt davomida kreol

⁵ Дьячков М.В. Креольские языки. М., 1987. С. 69.

tillarning vazifaviy rivojlanishiga, pjinlarning tarqalishiga, mazkur tillarda badiiy asarlar yaratilishiga, ta'lim sohasida va rasmiy doiralarda ulardan foydalanishga to'sqinlik qilib keldi.

Kreol tillarining oziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, kreol tilidagi so'zlar ko'plikni yoki intensivlikni ifodalash uchun takror qo'llanadi va bu orqali yangi tushuncha ifodalanishi ham mumkin. Masalan, *grande-grande* – juda katta, *amigo-amigo* – do'stlar, *china-china* – Xitoy xalqi, *dulce-dulce* – juda shirin kabilar. Yana shuningdek, tilning fonologik tizimini soddalashtirish natijasida shakldoshlik xususiyati vujudga kelishi ham mumkin. Masalan, ingliz tili asosida shakllangan *krio* kreol tilida so'zlarning fonetik-leksik qiyofasini o'zgartirilishi natijasida at I “yurak” (ing. heart), at II “shlyapa” (hat), at “zarar yoki ziyon keltirmoq” (ing. hurt) shakldosh so'zlari hosil bo'lgan.⁶

Amerikadagi Kyurasao, Aruba, Bonayre orollarida negr va ispan tillari aralashuvidan tashkil topgan papiyamento tilining grammatikasi sodda: otlar turlanmaydi, fe'l faqat bir xil shaklda qo'llanadi, gazeta va darsliklar chiqariladi. Kreol tilidagi badiiy ijodiyot, asosan folklor xarakteridadir.⁷ Bu kreol tilning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Kreol tillariga misollar

1. Bislama – Tinch okeanning janubi-g'arbiy qismida joylashgan Yangi Gebrid orollaridagi Vanuatu davlatida ishlatiladigan kreol tili. Ushbu kreol tilida uchta tilning (ingliz, fransuz va turli Melaneziya tillari) grammatik qoidalari va leksikidan foydalanadi. Bislama – Vanuatu davlatining rasmiy tili.

2. Tok-pisin – ushbu kreol mahalliy aholi va mustamlakachi davlatlar o'rtasidagi aloqa natijasida rivojlangan til hisoblanadi. Tok-pisin kundalik hayotda va rasmiy hujjatlarda ham qo'llanadi. Boshqa ko'plab kreollar singari tok-pisin ham oddiy grammatikaga ega va turli tillardan, shu jumladan ingliz va Polineziya tillaridan so'z o'zlashtirib, o'z tilining leksik manbasini boyitadi va so'zlashuv jarayonida qo'llaydi. Masalan, ingliz tilida mavjud bo'lgan “Good morning” birikmasi tok-pisin kreol tilida “Gut monin” shaklida qo'llanadi.

Tok-pisin kreol tilida qo'llanadigan ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarga misollar:

Good bay – Gutbai! – Ko'rishguncha!

Merry Christmas – Meri krismas! – Rojdestvo bayrami bilan tabriklayman!

I like swim – Mi laik suim – Men suzishni yaxshi ko'raman.

I am sorry – Mi sori – kechiring.

3. Solomon orollari kreol tili – ingliz tili asosidagi kreol tili bo'lib, tarkibi bo'yicha tok-pisin va bislam tiliga juda yaqin.

⁶ Бондалетов. В.Д. Социальная лингвистика. М.:Просвещение,1987.С.61.

⁷ Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – T:”Yoshlar matbuoti”, 2009, 172-bet.

4. Krio (Syerra-Leone kreoli) – Syerra-Leonening milliy tili. Mamlakatning deyarli butun aholisi (u yoki bu darajada) shu tilda so‘zlashadi.

5. Yamayka kreol tili – asosi ingliz tili bo‘lgan kreol tili hisoblanadi.

J.Siyegel koynelashish, pijinlashish va kreollashish jarayonlari o‘rtasida quyidagicha farqlar mavjudligi haqida alohida ta’kidlaydi.

1. Pijinlashish va kreollashish turli tillarda so‘zlashuvchilar o‘rtasida cheklangan, koynelashish esa cheklanmagan ijtimoiy vazifa natijasida yuzaga keladi. Pijinlashuv va kreollashuv jarayonida so‘zlashuvchi guruhlar o‘zaro muloqot uchun har ikkisiga tushunarli bo‘lgan, yangi umumiy til shakllanishi lozim, ammo koynelashishda so‘zlashuvchilar o‘z lahjalaridan foydalanishlari mumkin.

2. Koynelashuv lingvofranka va adabiy til oralig‘idagi tushuncha hisoblanadi. Chunki koynelar vaqt o‘tishi, ilm-fan, ta’lim va ommaviy axborot vositalarining tiliga aylanib borishi bilan adabiy tilning shakllanishida asos vazifasini bajarishi mumkin. Masalan, London koynesi London dialekti bilan birgalikda ingliz adabiy tiliga asos bo‘lib xizmat qilgan. Kreol tili ham vaqt o‘tishi bilan biror-bir davlatning milliy tili yoki rasmiy tiliga aylanishi mumkin. Buni yuqoridagi kreol tillar misolida ko‘rib chiqdik.

Xullas, kreol tillar mahalliy tillardan ikki yoki undan ortiq tillarning bir-biriga qo‘shilib, aralashishi natijasida shakllanganligi bilan farq qiladi. Mazkur til pijin tillar asosida shakllangan, ma’lum bir etnosning so‘zlashadigan va davlatning milliy tili yoki rasmiy tiliga aylanishi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. – Москва.:РГПУ, 2001. – С. 317.
2. Бердиалиев А. Ўзбек синхрон социоллингвистикаси. – Тошкент, 2019, – В. 129.
3. Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика. М.:Просвещение,1987. С.154.
4. Дьячков М.В. Креольские языки. М., 1987. С. 69.
5. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – T.: “Yoshlar matbuoti”, 2009.
6. См.:Теоретические проблемы социальной лингвистики.—М.:Наука, 1981.